| | Biologiya fanining ta'limdagi o'rni va o'qitishdagi muammolar..... 601 Pulatova Elnora Kadirovna | |
| | Boshlang'ich sinf darsliklaridagi antroponimlarning funksional, leksik, semantik, morfologik tadqiqi..... 606 Qarshiyeva Gulbahor Shamil qizi | |
| | Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish metodik muammo sifatida . 609 Raxmonova Iroda Samijonovna | |
| | Professional Standards for Pre-Service Teachers..... 613 Sardor Rakhmanov | |
| | Ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari 619 Sayidova Muxtaram Xamidullayevna | |
| | Ingliz tilini o'rgatishda multimodal yondashuv asosida ta'limiy videolardan foydalanish strategiyasi 623 Solijonova Mohlaroyim Abdumalik qizi | |
| | Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini matn ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish..... 628 Sotiboldiyeva Shoxista Jaloliddin qizi, Shodmonqulova Sevara Rahmonqul qizi | |
| | O'quv-tarbiyaviy vaziyatlarni loyihalashtirish asoslarida talabning tarbiyaviy jihatlarini takomillashtirish .. 632 Temirov Ma'ruf Shuhrat o'g'li | |
| | Tikuv buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirishning avtomatlashtirilgan tizimlari fani orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari..... 638 Umarova Fotima Abduraximovna | |
| | Bo'lajak o'qituvchilarda xalq pedagogikasi vositasida milliy xarakter xususiyatlarini shakllantirish omillari..... 641 Usmonova Muattar Bahadirjonovna, Hasanboyeva Kamola Dilmurod qizi | |
| | Raqamli ta'lim texnologiyalarning bugungi kunda ta'lim sohasidagi qo'llanilishi 647 Xamroyeva Madina Dadajonovna, Umarov Husan Lazizi o'g'li | |
| | Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni boshqarishni takomillashtirish..... 650 Xaydarova E'zoza Shukurullayevna, Li Zin Bo | |
| | Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitish metodikasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid tadqiqot ishlarining tahlili..... 655 Xodjaniyazova Shoxsanam Ergash qizi | |
| | O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umurlar" romanida inson va uning ruhiyati 660 Xolmatova Ro'zixon Akmaljon qizi | |
| | Talabalarda liderlikni shakllantiruvchi ijtimoiy-pedagogik omillar 663 Xoshimova Muazzamxon Zaynalobidinovna | |
| | Creative Games and Project-Based Learning in Physics Lessons 666 Yorqinbek Abduraimjanovich Mamatokhunov | |
| | Теоретические основы и практическое применение компетентного подхода в обучении физике 670 Абдулхаким Хакимов | |
| | Роль инклюзивной игровой деятельности в социальной адаптации детей с инвалидностью дошкольного возраста 673 Плиева Руслана Владимировна | |
| | "Beruniy asri" yoxud Beruniyning xarizmatik qobiliyati va uning boqiy ilmiy merosi 676 Saifnazarov Ismoil, Sultonov Tursinboy | |
| | Значение наблюдения и педагогической диагностики в инклюзивном образовании..... 682 Тургунова Нилуфар Абдусаломовна | |
| | Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik dunyoqarashini shakllantirish texnologiyalari 685 Xaydarova Shaxlo Narzullayevna, Azimova Gulmira Xayrullayevna | |
| | Диалог культур в рассказе "Келинка" галины ширяевой: гендерная и этнокультурная перспектива.. 689 Чернова Татьяна Алексеевна | |
| | Ijtimoiy va gumanitar fanlarning pedagogik ahamiyati: Xo'ja Vali avlodlari misolida 692 Umurov Sharif Rajabovich | |



| | |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Raqamli ta'lim sharoitida talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari: didaktik yondashuvlar va ilg'or ilmiy modellarning tahlili..... | 695 |
| Umarova Zaxro Abduraxim qizi | |
| Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion yondashuvga oid dolzarb masalalar | 701 |
| Sharofat Juraqulova Baxtiyorovna | |
| Bo'lajak ingliz tili mutaxassislarining sun'iy intellekt kompetensiyasi..... | 704 |
| Ibragimova Hilola Bahodirjon qizi | |
| Oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida kurash sport turini keng rivojlantirish | 709 |
| Ochilov Elbek Olimovich | |
| Muhandislik grafikasi ta'limida talabalarning grafik ishlarni bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish..... | 712 |
| Ashirboyev A. O., Muxamedjanova G. J. | |
| Futbol mashg'ulotlarida o'quvchilarda jamoaviy ruhni pedagogik usullar bilan rivojlantirish | 715 |
| Axmedjanov Shuhrat Boltayevich | |
| Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish | 718 |
| Bamullayeva Shodiyona Nasrullo qizi | |
| Umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlarining sifat va samaradorligini oshirishning nazariy hamda ilmiy asoslari | 721 |
| Esanov Muzaffar Xoshimovich | |
| Bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari | 726 |
| Eshmuminova Dilshoda Iskandarovna | |
| Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida pedagogik yondashuvlarning roli..... | 730 |
| Jumanova Iroda Shokirjon qizi | |
| Arab xattotlik san'atining rivojlanishi..... | 733 |
| Mamarajabov Mirqosim Ramazon o'g'li | |
| Educational Effectiveness of the Question-and-Answer Technique in Working With English Texts | 737 |
| Muradulloyeva Sevinch Soxibjon qizi | |
| Boshlang'ich sinf matematika va geometriya darsliklarida STEAM yondashuvi asosida o'qitishning imkoniyatlari..... | 740 |
| Nazarova Shahzoda | |
| Boshlang'ich ta'lim o'quv jarayoniga sun'iy intellektni tatbiq etishning metodik asoslari (sinfdan tashqari ishlar misolida)..... | 744 |
| Nigmatullayeva Matluba Izatullo qizi | |
| Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'quvchilarda ijtimoiy faollikni shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari | 748 |
| Normaxmatov Ilhom Zayniddinovich | |
| Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining imkoniyatlari..... | 751 |
| Qurbonov Sanjar Rajabboyevich | |
| Sportchi salomatligini baholashda zamonaviy texnologiyalar..... | 754 |
| Samandarov A. X. | |
| Sport tashkilotlari uchun marketing, e-marketingning foydalari..... | 758 |
| Samatov Javlonbek Abdukayumovich | |
| Futbol o'yinlari orqali o'quvchilarda jismoniy tarbiya pedagogikasining ahamiyati | 762 |
| Sattarov Qarshiboy Norqulovich | |
| Kichik maktab yoshidagi bolalarda lingvistik kreativ intellektni shakllantirishning pedagogik shartlari | 765 |
| Shodiyev Rizamat Davronovich, Jabborova Maftuna Komil qizi | |
| Ota-onalar bilan samarali hamkorlikni tashkil etishda direktorning strategik yondashuvi..... | 770 |
| Tog'ayeva Shahnoza Shavkatovna | |
| Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa tinglash | 774 |
| Xodjayeva Nilufar Latipovna | |
| Talabalarda kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish orqali sog'lom fikrlarni shakllantirish masalasi..... | 778 |
| Xudayberganova Nargisa Qurbonbayevna | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati | 782 |
| Xursanova Marjona Baxtiyor qizi | |
| Sun'iy intellekt – bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilari ta'limini modernizatsiya qilish vositasi sifatida | 785 |
| Yoqubaliyeva Dilafruz Payzidin qizi | |
| Tibbiy pedagogika: kasbiy ta'limda sog'lom turmush tarzi shakllantirishning psixopedagogik asoslari..... | 788 |
| Ziyatov Muhammad Namazovich | |
| Интерактивное обучение в развитии личности и критического мышления студентов | 792 |
| Рысова Галия Байбулатовна | |



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA LINGVISTIK KREATIV INTELLEKTNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI



Jabborova Maftuna Komil qizi
QarDU doktranti

Shodiyev Rizamat Davronovich

QarDU "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasasi mudiri,
P.f.d., professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning lingvistik kreativ intellektini shakllantirishning pedagogik shartlari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, pedagogik shartlarning mazmun-mohiyati, ta'lim jarayonida qo'llanilishi hamda ilmiy jihatdan o'rganilganligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, pedagogik shartlar, o'quvchilar, dastur, muloqot, faoliyat.

Abstract: This article provides information on the pedagogical conditions for the formation of students' linguistic creative intellect. Additionally, the content and nature of the pedagogical conditions, their application in the educational process, and their scientific exploration are discussed.

Key words: creativity, pedagogical conditions, students, program, communication, activity.

Аннотация: В данной статье представлена информация о педагогических условиях формирования языкового творческого интеллекта учащихся. Также обсуждаются содержание и характер педагогических условий, их использование в образовательном процессе и их научное изучение.

Ключевые слова: творчество, педагогические условия, студенты, программа, общение, деятельность.

KIRISH

Kichik maktab yoshidagi bolalarning lingvistik kreativ intellektini shakllantirishga bo'lgan qiziqishini oshirish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonini tashkil etuvchi asosiy shaxs bu – pedagog hisoblanadi. Shunday ekan, maktablardagi dars jarayonini qiziqarli va ijodiy kayfiyatda tashkil etish o'qituvchining eng muhim vazifalaridan biridir. Dars jarayoni shunday tashkil etilishi kerakki, bolaning qalbida "mo'jizakor" his-tuyg'ularni uyg'otishi kerak. Ushbu his-tuyg'ular orqali bola intellektual kreativ faoliyatini faollashtiruvchi ichki mexanizmi ishga tushiradi.

Bolalarning bunday faoliyati yorqin, ijobiy hissiyotlar bilan to'yingan bo'lib, uning ushbu faoliyatidagi ijodiy ehtiyojlariga chambarchas bog'langan bo'ladi. Bolalar ta'lim jarayonida ijodiy muammolarni hal etish bilan birga yangi kashfiyotlarni kashf etishadi hamda muvaffaqiyatlaridan quvonishadi, ajablanishadi, zavqlanishadi.

Boladagi qiziqish yuqoridagi paragraflarda aytib o'tilganidek, o'rganilayotgan sohaning muhim tarkibiy qismi hisoblangan motivatsion-emotsional, kognitiv, operativ va refleksiv-axloqiy komponentlarni samarali rivojlantirishga imkon beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik maktab yoshidagi bolalarning lingvistik kreativ intellektini shakllantirish muammosi bo'yicha ko'plab olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Y.M. Borshevskaya bolalardagi kreativlik rivojlanishini har xil muhitda amalga oshirishini hamda bu jarayon ma'lum bir hodisalar yoki obyektlarga bog'liq ekanligini o'rgangan. G.X. Vaxitova esa bolaga ko'rsatilayotgan tashqi ta'sirlar natijasida o'quv faoliyatini yanada samarali tashkil etish mumkinligini aniqlagan.

V.I. Andreev o'quvchilarning lingvistik kreativ intellektini shakllantirishning mazmun-mohiyatini, pedagogik jarayonni tashkil etish shakllari, usullari hamda shart-sharoitlarini o'rgangan. N.V. Ippolitovanning fikricha, pedagogik tizimning samaradorligiga ichki va tashqi komponentlar faoliyati hissa qo'shadi. Komponentlar asosida pedagogik tizim shakllanadi. I.F. Berejnaya esa bolaning lingvistik kreativ intellektida maqsadli ravishda yaratilgan sharoitlarning o'rnini beqiyos ekanligini aytadi. Yuqorida keltirilgan olimlarning fikrlari kichik maktab yoshidagi bolalarning lingvistik kreativ intellektini shakllantirishning pedagogik shartlarini tashkil etadi [1, 56-6]. Pedagogik komponentlarning har biri o'zaro bog'liq bo'lib, yagona integral vazifani bajaradi.



1-rasm: O'quvchilarning lingvistik kreativ intellektini shakllantirishdagi pedagogik shartlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Dars jarayonining o'yin tarzida tashkil etilishi bolaning o'rganayotgan materiallarini tasviriy shaklda qabul qilishiga sabab bo'ladi. Bu esa bolaning hissiy intellekti bilan bog'lanib, shug'ullanayotgan faoliyatiga yuqori darajadagi qiziqishini ta'minlaydi. 6–8 yoshgacha bo'lgan bolalardagi hissiy komponentlar orasida eng kuchlisi motivatsion komponent hisoblanadi. Ushbu komponent atrofimizdagi dunyo haqidagi ma'lumotlarni mazmunli o'rganish imkonini yaratish bilan birga, kreativ intellektini shakllantirish uchun qiziqish uyg'otadi. Bolaning tafakkurida hayoliy vaziyatlarni yarata olishida ijodiy tasavvur yetakchi rol o'ynaydi. Faqat berilayotgan ta'lim manbai tabiiy va tabiatga uyg'un holatda bo'lishi kerak. Masalan, bolalarga chet tillarini o'rgatishda sun'iy sharoitlar yaratamiz (muloqot jarayoni, darsliklar, videolar va h.k.). Ammo bu jarayonda bolalarga o'rganayotgan tillardagi madaniyatni o'zida aks ettirgan xorijiy muhitning yetishmasligi salbiy natija berishi mumkin. Bu holatda bola chet tilini o'rganishga qiziqmay qo'yadi. Shunday ekan, boladagi qiziqishni rivojlantirish uchun uning ichki ehtiyojlarini qondiradigan drammatizatsiya ko'rinishidagi madaniyatlar dialogidan foydalanamiz. Ushbu faoliyatning o'ziga xos jihati shundaki, bola bir vaqtning o'zida diqqatini jamlaydi, ijodiy fikrlaydi, fantaziya va tasavvurini ishga soladi. Drammatizatsiya jarayonida bolaning xotirasi mustahkamlanadi, eshitish qobiliyati shakllanadi, badiiy did rivojlanadi hamda eng asosiysi, tildagi nutqiy malakalari yaxshilanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik maktab yoshidagi bolalarning shaxsiy va psixofizilogik xususiyatlarini hisobga olish zarur. O'quvchilarning lingvistik-kreativ intellektini shakllantirishda intellektual rivojlanish xususiyatlari hamda aqliy rivojlanish operatsiyalarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. J. Gilford, E. Torrens va boshqalar "divergent fikrlash" qobiliyatiga ega bo'lgan bolalarni ijodiy fikrlash jarayonida boshqa bolalardan ustun ekanligini isbotlashgan. Divergent fikrlash – bu ko'plab mumkin bo'lgan yechimlarni o'rganish orqali ijodiy g'oyalarni yaratish uchun ishlatiladigan fikrlash jarayoni bo'lib, u odatda o'z-o'zidan, erkin oqimli, "chiziqli bo'lmagan" tarzda kechadi. Shu sababli ko'plab g'oyalar paydo bo'ladi va kutilmagan aloqalar chiziladi. Divergent fikrlashdan



so'ng, g'oyalar va ma'lumotlar konvergent fikrlash yordamida tizimlashtiriladi va tartibga solinadi, ya'ni bitta yechimga erishish uchun muayyan mantiqiy qadamlar ketma-ketligi asosida qaror qabul qilinadi; ayrim holatlarda bu "to'g'ri" yechim bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi psixofiziolog olimlar kichik maktab yoshidagi bolalarning intellektual-ijodiy jihatdan rivojlani-shida chet tillarining foydali ta'sirini o'z tadqiqotlarida ko'rsatib berganlar. Psixofiziologik nuqtai nazardan qaral-ganda, bolaning nafaqat chet tilini o'rganishi, balki nutq ko'nikmalarining yakuniy shakllanish bosqichi to'qqiz yoshgacha tugallanadi. Chunki inson organizmida endokrin bezlar tomonidan ajratiladigan gormonlar ta'sirida miyaga ma'lum vaqt oralig'ida buyruqlar beriladi. Ushbu buyruqlar miya orqali tananing boshqa qismlariga uzatilib, insonning faoliyatiga aylanadi. Xuddi shunday faoliyatlardan biri – nutq faoliyati uchun mas'ul bo'lgan miya qismi – keyinchalik yangi vaziyatlarga oson moslasha oladi. O'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantir-ishda ushbu holatni hisobga olish muhim.

Ma'lumki, kichik maktab yoshidagi bolalar o'zlarining ichki tabiati bilan intellektual-ijodiy salohiyatni shakl-lantirish qobiliyatiga ega. Agar bola aqlan sog'lom bo'lib, o'z harakatlariga mas'ul bo'lgan kuchlarni anglay olsa, bu uning ichki olami sog'lom ekanligidan dalolat beradi. Ushbu jarayonda bolaning aqliy va jismoniy salomatli-giga alohida e'tibor qaratish lozim.

Kichik maktab yoshidagi bolalar ongida xulq-atvor qoidalarini to'g'ri tarbiyalash. Kichik maktab yoshi – bu bolaning genesis nuqtai nazaridan juda muhim davr hisoblanadi. Chunki aynan shu yoshda bolaning psixi-kasi va ijtimoiy-axloqiy qoidalarning rivojlanishi jadal kechadi. Bola hayoti atrof-muhit bilan bevosita bog'liq bo'lib, hayot faoliyati davomida xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirishga hamda axloqiy baho bera olish ko'nikma-sining shakllanishiga olib keladi. Bu esa bolaning o'rgangan voqea-hodisalarining real haqiqatga aylanishiga xizmat qiladi. Axloqiy tushunchalar bola hayot faoliyatida doimiy ravishda o'zlashtiriladi va bu jarayonda yanada aniqlashib, murakkablashib boradi. Masalan, bola o'qiyotgan kitobdagi yoki ko'rayotgan multfilm(qahramon) dagi obrazlar bola hayotida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan modelga aylanishi mumkin. Ushbu modellar bolada empatiya hisining shakllanishiga sabab bo'ladi. "Empatiya" atamasi psixologik nuqtai nazardan qaralganda, boshqalarning his-tuyg'ularini sezish va tushunish qobiliyati, ularga hamdardlik bildirish yoki ular bilan birga-likda his qilishni anglatadi.

Boladagi ijodkorlikni shakllantirishda rolli o'yinlardan ham keng foydalaniladi. Rolli o'yin faoliyatini amalga oshirish jarayonida bola atrofidagi ishtirokchilar bilan birgalikda o'yinda qatnashayotgan obyekt yoki g'oyaning "foydaliligi" haqida muhokama olib borishi kerak. Bu yo'nalishda tashkil etiladigan ta'lim jarayonining samarali bo'lishi uchun ta'lim ishtirokchilari hamda bolaning oilasi o'zaro ahil va hamjihat bo'lishi zarur. Ta'lim jarayoni-dagi bolaga o'rgatilayotgan mavzular real hayotga, ayniqsa tabiatga qanchalik yaqin bo'lsa, berilayotgan ta'lim bola uchraydigan vaziyatlarga shunchalik uyg'unlashadi. Mavzular o'quvchilar, oila va pedagoglar hamkorligida amalga oshirilishi zarur. Bunda "oila–bola", "pedagog–bola" hamda "oila–pedagog" munosabatlari yuzaga keladi va bu uchlik orasidagi hamkorlik harakatining mujassam ko'rinishini tashkil etadi.

Ko'plab mutaxassislar ta'lim muassasasi va ota-onalar o'rtasida faol hamkorlikni yo'lga qo'yish ta'lim jara-yonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlashmoqda. Ta'lim jarayonida ota-onalar va peda-goglar o'rtasidagi munosabat darsdagi vazifalarni hal etishda muhim to'ldiruvchi omilga aylanadi. Aynan mana shu holat kichik maktab yoshidagi bolalarda ijodiy bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqishni shakllantiradi. Maktab muhitida berilayotgan ta'lim, albatta, uyda ham davom ettirilishi, muhokama qilinishi kerak. Ota-onalar har kuni, hech bo'lmaganda oz daqiqqa bo'lsa ham, farzandlari bilan samimiy muloqotda bo'lishi kerak. Ana shu mulo-qotda bola dars jarayonida olgan bilimlarini bayon qilish imkoniga ega bo'lishi lozim. Bola o'zlashtirishda qiyna-layotgan vazifalarni hal etishda oila a'zolaridan bemalol yordam so'ray olishni o'rganishi zarur. Aynan shunda unda muammolarni hal etishga ijodiy yondashuv shakllana boshlaydi.

Oila va maktab o'rtasida samimiy hissiy munosabatlarga asoslangan hamkorlikni tashkil etish. Bola dunyoga kelganidan boshlab, uni parvarishlovchi, tarbiya beruvchi, dastlabki bilimlarni o'rgatuvchi shaxslar bu – ota va ona hisoblanadi. Shuning bilan birga, ota-ona bolaning dastlabki tarbiyachisi hamdir. Boladagi paydo bo'layotgan qobiliyatlarni sezuvchi va uni to'g'ri shakllantiruvchi ham ota-onadir. Boladagi ijodiy impulslarni tezda sezish, ularni rivojlantirish, bolaning shaxsiy xususiyatlari va manfaatlarini hisobga olish, boshqa tillarni o'rganishga bo'lgan qobiliyatning mavjudligini aniqlash va boshqa shu kabi vazifalar ota-onaning vakolatiga kiradi. Shunday ekan, boladagi impulslarni sezish va bolani ularga jalb etishda ijobiy hissiy muhit yaratish ota-ona hamda ta'lim beruvchi pedagoglar oldidagi muhim vazifa hisoblanadi. Bola qalbiga aynan ijobiy hissiy atmosfera orqali kirib boriladi. Y.A. Komenskiy bu haqida shunday degan: "Farzandingizga kundalik amaliy ko'nikmalarni o'rgatishda, ota-ona sifatida ularning qalbiga donolikni singdirishingiz kerak" [2, 34-b].

Negaki, bolalar erta yosh davrlaridanoq juda zukko bo'lishadi va har bir so'zni tezda eslab qolishadi. Shuning uchun ham bu yoshda bolalar nutqini diqqat bilan tinglash va ularning aytayotgan fikrlariga hurmat bilan qarash muhim hisoblanadi. Bola fikrlarining ota-onasi tomonidan tinglanishi, bolada o'z fikrlariga nisbatan

ishonch paydo bo'lishiga olib keladi. Boladagi ishonch esa, undagi donolik va notiqlikning shakllanishida asosiy poydevor hisoblanadi. Y.P. Azarov, S.N. Dubinin, L.A. Kulik, P.F. Lesgaft va boshqa olimlar kichik maktab yoshidagi bolalarning intellektual ijodiy yondashuvini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan bir qancha qarama-qarshi oilaviy munosabatlar parametrlarini ishlab chiqqanlar [4, 25-b]. Ular quyidagilardan iborat:

1. Uyg'unlik – nomutanosiblik. Bunda oiladagi shaxslar va bola o'rtasidagi munosabatlarda bir xillik yoki nomutanosiblik kuzatiladi.
2. Ijodkorlik – noijodkorlik. Bu holatda bola ota-onasining ijodkor bo'lishi yoki umuman ijodkor shaxs bo'lmashligi nazarda tutiladi.
3. Rag'bat – tanqid. Intellektual ijodiy jarayonda har bir oila a'zosining bola umid va yutuqlarini qo'llab-quvvatlashi yoki unga qarshilik ko'rsatishi tushuniladi. Bundan tashqari, kichik maktab yoshidagi bolalarning kreativ intellektini shakllantirishda oilaning boshqa sifatlardagi roli yetakchi ahamiyatga ega. Masalan:
 - birgalikda o'qish orqali bola hayot tajribasini yanada boyitish;
 - bolalar bilan birgalikda klassik musiqalarni tinglash;
 - teatr yoki muzeyga tashrif buyurish;
 - tabiatdagi turli obyektlarga sayohat qilish;
 - origami darslari bo'yicha haykaltaroshlik materiallarini tayyorlash;
 - birgalikda mazmunli rasm chizish jarayonida ishtirok etish;
 - turli xil yozuv mashqlarini bajarish;
 - konstruksiyalar to'plamini birgalikda yig'ish va hokazo faoliyatlar.

“Lingvistik kreativ intellektni shakllantiruvchi o'yinlar” nomli dasturni amalga oshirish. “Lingvistik kreativ intellektni shakllantiruvchi o'yinlar” nomli mualliflik dasturi bizga kichik maktab yoshidagi bolalarning lingvistik kreativ intellektini shakllantirishga imkoniyat beradi. Ushbu dasturdagi metodikalar 25–30 daqiqaga mo'ljallangan bo'lib, haftasiga ikki yoki uch marta amalga oshiriladi. Dastur tizimli, madaniy-tarixiy, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan hamda aksiologik yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Ushbu dastur hissiy jihatdan rag'batlantiruvchi muhit yaratish, muammoli vaziyatlar keltirib chiqarish, ijodiy tasavvurni rag'batlantirish hamda xulq-atvorning ijodiy modelini shakllantirish tamoyillariga tayanadi.

Dasturning mazmuni bolaning hissiy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratadi. Bunda bola:

- atrofidagi qarama-qarshiliklarga qiziqadi;
- qarama-qarshiliklarni o'rganish va hal etish istagida bo'ladi;
- muloqotda axborotni idrok etish va qayta ishlash malakasi rivojlanadi;
- ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmasi shakllanadi;
- moslashuvchan, cheksiz fikrlashi rivojlanadi;
- yangi sharoitlarda qarama-qarshiliklarni hal etish usullarini o'rganadi;
- tadqiqotlarga oddiy obyekt sifatida boshqa nuqtai nazardan qarashni boshlaydi;
- e'tiborini qaratishni o'rganadi;
- axloq va qadriyatlar bilan ishlash qobiliyati rivojlanadi;
- boshqalarning muvaffaqiyatlaridan quvonish hissi va boshqalarga yordam berish istagi shakllanadi.

Dastur 4 bosqichda amalga oshiriladi: motivatsion, informatsion, muammoli vaziyat hamda baholovchi bosqichlar. Dasturdagi o'ziga xoslik – ta'lim jarayonida “tildagi qarama-qarshiliklar”dan foydalanishdir. N. E. Veraksaning ilmiy tadqiqot ishlarida bolalarda dialektik mantiq va undagi transformatsiyalar qarama-qarshiliklar asosida o'zlashtirilishi isbotlangan. L. S. Vigotskiy, J. Piaje va boshqalar ta'lim jarayonida “tildagi qarama-qarshiliklar”dan foydalanish o'qituvchiga bir qancha qulayliklar yaratishini ta'kidlagan. Jumladan, so'zlarning qarama-qarshi ma'nolaridan foydalanish ularning xususiyatini kengroq ochish imkonini beradi. Bu esa boladagi so'z boyligining oshishiga xizmat qiladi va o'qituvchiga obyektlar bilan ishlashda mashqlar tashkil etish imkoniyatini yaratadi.



XULOSA

Yaratilgan dasturimizning ajoyib xususiyati – tildagi kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirishda ijodiy tasavvurni boyituvchi materiallarga ega bo'lishidir. Masalan, bolaning ijodiy tasavvuri hayoliy vaziyatlarni yaratishda ishtirok etib, nafaqat ona tilida, balki chet tilida ham ijodiy muloqot qila olish ko'nikmasini rivojlantiradi. Chet tillarini o'rganish jarayonida u xorijiy mamlakatlar madaniyatini bir vaziyat doirasida o'zlashtiradi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, yuqoridagi adabiyotlarni tahlil qilib, ko'plab olimlarning fikrlari va ilmiy-tadqiqot ishlarini ko'rib chiqish asosida o'quvchilarda lingvistik kreativ intellektni shakllantirishning pedagogik shartlarini aniqladik va asoslab berdik. Ta'lim jarayonini tashkil etishda ushbu pedagogik shartlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Chunki yuqoridagi talablar asosida o'quvchilarning lingvistik kreativ intellektni shakllantiruvchi metodlar va usullar ishlab chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Вахитова Г. Х. Теоретическое основание и организационно-педагогические условия развития творческих способностей дошкольников: дисс. ... канд. пед. наук: 13.00.01 / Г. Х. Вахитова. – Томск, 2000. – 161 с.
2. История образования и педагогической мысли за рубежом и в России: учеб. пособие / И. Н. Андреева, Т. С. Буторина, З. И. Васильева и др.; под ред. З. И. Васильевой. – Москва: Академия, 2002. – 385 с.
3. Дубинин С. Н. Семейное воспитание как основной фактор развития личности ребенка / С. Н. Дубинин // СПО. – 2009, № 5. – С. 29–31.
4. Азаров Ю. П. Семейная педагогика / Ю. П. Азаров. – Москва: Просвещение, 1994. – 254 с.
5. Кулик Л. А. Семейное воспитание / Л. А. Кулик, Н. И. Берестов. – Москва, 1990. – 149 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.